



ANALYSIS OF LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF ZULFIYA AND 谢冰心XIE BING XIN'S POEMS, MATURE EXAMPLES OF UZBEK AND CHINESE POETRY

Sodiqova Dilafruz Azimjon qizi

*TDSHU, translation, linguistics and
teacher of the Higher School of international journalism
E-mail: dilafruzusmonova791@gmail.com*

Annotatsiya. XX- asr o'zbek va xitoy adabiy muhitida ayollar she'riyatining tutgan o'rni beqiyos. Ayniqsa, mashhur shoira, noshir va tarjimon, o'zbek xalqining suyuqli qizi Zulfiyaxonim va taniqli nosir, shoira, o'qituvchi va tarjimon 谢冰心 Xie Bing Xinlar ijodini qiyosiy o'rganish, she'rlarini lingvopoetik tahlilga tortish orqali o'sha davr ikki mamlakat ijodiy muhitini, o'zbek tili va xitoy tillarining nutqiy ifodalanish imkoniyatlarini, shoiralarning estetik jihatdan qo'llagan barcha til vositalari, ijodkorlarning individual uslublari va badiiy tafakkur dunyolarini ochib berish bilan birga, XX-asr sharq ayollarining orzu-maqсадlari, muammo-yu tashvishlari, botiniy dunyolarini tom ma'noda asl bo'yoqlar bilan qayta aks ettirgan bo'lamiz. Shu kungacha Zulfiya va Bing sin ijodi bo'yicha ona tilimiz va turli xorijiy tillarda ko'plab asarlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq ushbu ikki yetuk shoiraning she'rlari, ijodiy dunyosi qiyosiy jihatdan, lingvistik hamda poetik nuqtai nazardan atroflicha o'rganilmagan.

Ushbu maqolada shoiralarning "tabiat" haqidagi she'rlari qiyosiy lingvopoetik tahlilga tortilgan, stilistik xususiyatlari bayon etilgan. Ular ijodida qo'llanilgan konnotativ ma'noni ifodalab kelgan til vositalarining xususiyatlari, she'riy san'atlar, ritorik so'roqlar, ko'chimlar, frazeologik birliklar, obrazlar tizimi, ayni "bahor" mavzusidagi she'rlari asosida ikki til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qiyosiy o'rganildi.

Kalit so'zlar: qiyosiy lingvopoetik tahlil, sinestetik metafora, neologizm, ritorik so'roq, badiiy obraz, frazeologizm

Аннотация. Роль женской поэзии в узбекской и китайской литературной среде XX века несопоставима. Особенно знаменитая поэтесса, издатель и переводчик, любимая дочь узбекского народа Зулфияханым и известная прозаик, поэтесса, педагог и переводчик Себинсинь, сопоставляя свои стихи с лингвопоэтическим анализом и раскрывая творческую среду страны, возможности речевого выражения узбекского и китайского языков, все языковые средства, эстетически используемые поэтами, индивидуальные стили творцов и миры художественного мышления, мы буквально воспроизведем в оригинальных красках мечты, цели, проблемы и переживания женщины XX века, их внутренний мир. До сих пор по произведениям Зулфии и Бинг Сина проведено множество работ и научных исследований на нашем родном языке и на различных иностранных языках. Однако стихи и творческий мир этих двух зрелых поэтов не изучены глубоко со сравнительно-лингвистической и поэтической точки зрения. В данной статье их творчество не только подвергается сравнительному лингвопоэтическому анализу, но также делаются новые переводы и подробно описываются художественные открытия двух поэтических школ.

В данной статье стихотворения поэтов о «природе» подвергаются сравнительному лингвопоэтическому анализу, описываются их стилистические особенности. На основе особенностей языковых средств, поэтических искусств, риторических вопросов, движений, фразеологизмов, системы образов, выражающих коннотативный смысл, используемых в их произведениях, на основе особенностей двух языков, на основе их стихотворений на тему «весны» изучалась сравнительно.

Ключевые слова: сопоставительный лингвопоэтический анализ, синестетическая метафора, неологизм, риторический вопрос, художественный образ, фразеологизм.

Abstract. The role of women's poetry in the Uzbek and Chinese literary environment of the twentieth century is incomparable. Especially the famous poetess, publisher and translator, beloved daughter of the Uzbek people Zulfiyakhanim and the famous prose writer, poetess, teacher and translator Xie Bing Xin, comparing their poems with linguistic-poetic analysis and revealing the creative environment of the country, the possibilities of verbal expression of the Uzbek and Chinese languages, all linguistic means aesthetically used by poets, the individual styles of creators and the worlds of artistic thinking, we will literally reproduce in original colors the dreams, goals, problems and experiences of women of the twentieth century, their inner world. Until now, many works and scientific studies have been carried out on the works of Zulfiya and Bing Xin in our native language and in various foreign languages. However, the poems and creative world of these two mature poets have not been studied deeply from a comparative linguistic and poetic point of view. In this article, their work is not only subjected to comparative linguistic and poetic analysis, but also new translations are made and the artistic discoveries of the two poetic schools are described in detail. In this article, poets' poems about "nature" are subjected to comparative linguapoetic analysis, and their stylistic features are described. Based on the characteristics of linguistic means, poetic arts, rhetorical questions, movements, phraseological units, the system of images expressing the connotative meaning used in their works, based on the characteristics of two languages, based on their poems on the theme of "spring" was studied comparatively.

Key words: comparative linguistic and poetic analysis, synesthetic metaphor, neologism, rhetorical question, artistic image, phraseological unit.

She'riyat -mo'jizaviy ummon. Shoir esa kichik qalamini kema bilib, ulkan ummonda suzib borayotgan inson go'yoki...

Bu ajib ummonning shunday dilbar darg'alari borki, ularning ko'ngil oshiyonidan tergan dur-u gavharlari ziyosi asrlar osha, hali hanuz ong-u shuurimizni yoritib, qalblarimizga muhabbat, ezgulik, mardlik va yurtga sadoqat kabi ulug', hayotbaxsh tuyg'ularni bag'ishlab kelmoqda. Ularning yaratgan asarlari hech qanday millat, makon, zamon tanlamaydi. Bu yuksak qalb va o'tkir qalam sohibalari o'z she'rlarida chinakam insoniylikni baralla tarannum eta olgan jasoratli shoiralar : **"o'zbekning Zulfiyasi" va xitoy xalqining suyukli qizi 谢冰心 (Xiè bīng xīn) lardir.** Ushbu izlanishimiz shu ikki buyuk shoiraning ijodiy merosini o'rganish, ham til, ham badiiylik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganiga e'tiborni qaratish kerak. Chunki badiiy matnda so'zdagi konnotativ ma'no muhim, bu konnotativ ma'noni harakatga keltirish, unga asoslangan holda yaxlit badiiy mazmunga xizmat qiladigan original badiiy ma'nolarni yuzaga keltirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Shuni ham alohida ta'kidlamoq kerakki, konnotatsiya badiiyat uchun xizmat qilishga qaratilgan.

Zulfiya va Bing sin ayni bir davrda ijod qilganlar, har ikkisi ham "bahor, tabiat, ezgulik, Ona mehri, farzand kamoloti" haqida she'rlar yaratgan. Zulfiya "Temiroy", "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" kabi poetik asarlarini ona Vatan va uning dala, cho'llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag'ishlaydi. Bing sin "母爱的诗歌" Ona mehri haqida she'rlar, "母爱" Ona mehri, "关于女人" Ayollar haqida kabi she'rlari bilan jamiyatni ayol, ona zotiga ehtirom ko'rsatishga chaqirgan. Bing sin bolalar nasrida ham barakali ijod qilgan.

Har ikkisi ham jahon adabiyoti yirik namunalarini o'z ona tillariga tarjima qilganlar. Zulfiya N. Nekrasov, M. Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam she'rlarini mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan. Bing sin esa Robindranath Tagorning barcha asarlarini, Jubran Halil kitoblarini xitoy tiliga tarjima qilgan. Har ikkisi ham ma'rifat fidoiylari bo'lib, she'riyat, adabiyot, til sohalarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berganlar, katta maktab bunyod etganlar. Zulfiya ham, Bing sin ham o'z davrining yirik jamoat arbobi, yuksak iste'dod egalari bo'lishlari bilan birga, oilada sadoqatli

yor, jonkuyar ona, hayot sinovlaridan mardlik va matonat bilan o'ta olgan, insonparvarligi, boy ma'naviy dunyosi bilan barchaga namuna bo'la oladigan buyuk ayollar bo'lishgan. Har ikkisining asarlarida ham chin muhabbatga sadoqat g'oyalari baralla yangraydi.

Zero bu tadqiqot, ikki birodar xalq adabiyoti ustida mustahkam ko'prik yasab, bugungi kun avlodlarining har jihatdan kamol topishi va ilm salohiyatlarini oshirishda o'ziga xos hissa qo'shsa ajabmas. Quyida Bing Sinning 《迎春》 Yíngchūn "Marhabo bahor" nomli she'rini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib ko'ramiz.

春来了，
从哪里迎接她呢？
可能听她微步的足音，
看她美艳的衣裳，
接她轻倩的笑语？
她从青青的草色中来了，
从潺潺的水声中来了，
从拂拂的微风中来了，
从世人欣悦的微笑中来了。
我的朋友，
这不是"春"么？
她推着浓妆的世界，
转到你面前，
慰藉你，
鼓舞你，
更深深的命令你。
看这美满完全的表现呵！
我的朋友！
你一定要寻见"春"么？
"春"何曾是人间的呢？
看她创造的生命罢！
新绿的草色中，
新涨的潮声里，
"春"在里边蕴藏着了！

Quyida ushbu she'rning o'zbek tilidagi tarjimasini keltiramiz:

“Ko'klam kelar... qayerda qarshi olayin uni?
Tinglarmisiz bahorning nozik qadamlarini
Mo'jizaviy libosin ko'rgandirsiz ehtimol
Shirin suhbatini bilan sizni ham qilgandir lol?
U yashil o'tloqlardan ohista kelayotir
Suvlarning ovozi asta shivirlayotir
Mayin shabboda bo'lib qoshimga yelayotir
Olamning bor quvonchi, baxtlardan kelayotir...
Do'stim, aytchi sen menga, bu emasmikan bahor?
Yorqin bo'yoqlar bilan pardozlovchi zaminni
U yuzlanar sen tomon taskin bermoq azmida,
Yayratadi, mahf etar yangidan yuragingni...
Qarang do'stim mana bu chin baxtning ko'zgusiga!
Birodarim bahorni ko'rmoqni istaysizmi,
Qanday yaraldi asli bahor ko'hna dunyoda

U yaratgan hayotga bir nazar solmaysizmi ?
Yam-yashil o'tloqlarda bahor atri mujassam
Dengiz hayqirig'ida ko'klam navolari jam!"
"Bahor" ko'ngil tubida - ichkarida joylashgan!

(D.Sodiqova tarjimai)

Ushbu she'rda Bing sin she'r boshidan oxiriga qadar tashxis san'ati ya'ni apostrofani mohirona qo'llagan. Xitoy tilida tashxis 拟人化 Nǐrén huà deb nomlanadi. U ham 隐喻 Yǐnyù metaforaning bir turidir. O'zbek adabiyotida tashxis- jonlantirish(Apostrofa [yunoncha](#):ἀποστροφή) ning bir ko'rinishi bo'lib, jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa hodisadek murojaat qilish yoxud yo'q shaxsga xuddi bordek qarash demakdir. Bing sinnning 《迎春》 nomli she'ri o'zbek shoirasi Zulfiyaning ijodidan o'rin olgan "Bugun tunda kelarmish, Bahor"she'ri bilan mazmunan juda ham yaqin. Har ikkisi ham bahor faslini qarshi olishga bag'ishlangan. Har ikkisi ham emotsional satrlarga boy:

Derazangdan mo'ralab asta,
Gul yuzingdan bo'lib shikasta,
Uzun qishga siltab qo'lini,
Ham qalbingdan boshlab yo'lini,
To'qqiz oyki, yelarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Qoru muzni suvga g'arq qilib,
Izg'irinni butkul tark qilib,
Eshitgandek mening nola'mni,
Guldastaga o'rab olamni –
Tushda boshing silarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Gōzallikni eltib jahonga,
Sano aytib har o'tgan onga,
Jamolingga bōlib mahliyo,
Istarangdan olgancha ziyo,
Bizga iqbol tilarmish Bahor,
Bugun tunda kelarmish Bahor..

Unutilar hazonrez kuzak,
Tabassuming yuzingga bezak.
Mehrlaring menga o'g'dirib,
Yomg'irlarni yerga yo'g'dirib,
Suvlarini elarmish Bahor,
Bugun tunda kelarmish Bahor..

Hissiyotga tōldirib dilni,
Kengaytirib kichik kōngilni,
Duolarga ijobat etib,
Tabiatni chamanzor etib,
Baxtimizdek kularmish Bahor,
Bugun tunda kelarmish Bahor..

"Derazangdan mo'ralab asta"- bahorning kirib kelishi" o'quvchi ko'nglida ajib bahoriy hislarni uyg'ota boshlaydi. Tasavvurimizda jonli, go'zal Bahor suratini namoyon qiladi. Ushbu she'r matni hissiy ifoda

mazmunli matnlarga xos bo'lib, Zulfiya ham Bing sin kabi asosan tashxis san'atidan foydalangan, ya'ni faslga inson hatti-harakatlari ko'chirib o'tkazilgan.

Bing sinning”春来了， 从哪里迎接她呢？可能听她微步的足音”，

satrda “bahorning kelgani, shoirauning uni qayerda kutib olish haqida o'ylashi” jonlantirishni yaqqol namunasidir. Shoirauning boshqalarga ham “uning yengil qadam tovushlarini eshityapsizmi” deya murojaati ko'z o'ngimizda go'zal bahor suratini yanada yorqinroq tasvirlaydi. 看她美艳的衣裳, satridagi 美艳的衣裳 měi yàn de yīshang “mo'jizaviy, maftunkor libosi” so'z birikmasi epitet(绰号 Chuòhào) vazifasida kelgan. Zulfiya bahorni naqadar ulkan sog'inch va sevinch bilan kutganini ana shu satrlardan anglab olish mumkin: “Uzun qishga siltab qo'lini, ham qalbingdan boshlab yo'lini” “uzun qish” birikmasida konnotativ ma'no mujassam. Ya'ni qishning uzoq davom etganidan muallif bezovta bo'lib, ilhaq bahorni kutgan. U “**Uzun qish**” birikmasi (矛盾修辞法 Máo dùn xiūcí fǎ)

sinestetik metaforani hosil qilgan. O'lchamni ifodalovchi sifat-“uzun”so'zi “yoqimsiz, uzoq vaqt ma'nosida kelgan. Ya'ni bir sezgi organi bilan idrok etiladigan tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan tushunchaga o'xshatilib, shu asosida ko'chma ma'no yuzaga keladi. To'qqiz oyki, yelarmish bahor, ushbu satrlarda bahor “shamol”ga qiyoslanmoqda. “Bugun tunda kelarmish bahor”...Bunda muallif yana jonlantirishdan mahorat bilan foydalanmoqda: bahor go'yo safarga ketgan kishi bo'lib, u bugun tunda qaytishini bashorat qilyapti. “Eshitgandek mening nola'mni, Guldestaga o'rab olamni “-satrlarida litota qo'llanilgan. Mubolag'a yunoncha giperbola so'zidan olingan bo'lib, bo'rttirish, orttirib ko'rsatish degan ma'noni bildiradi. Litota esa, uning aksi bo'lib, haddan tashqari kichraytirish ma'nosini bildiradi. Litota termini mumtoz adabiyotimizda tafrif san'ati deb yuritiladi. Butun borliqni guldestaga o'rab olinishi shoirauning yana bir badiiy kashfiyotidir.

Endi Bing singa qaytamiz. “我的朋友，这不是“春”么？”Do'stim, bu bahor emasmi, satri ritorik so'roq 反问句 Fǎnwèn jù gapni ifodalab kelgan. Bunday gaplar she'rning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vosita bo'lib, monologik va dialogik nutqlarda(独白和对话 Dúbái hé duìhuà) qo'llaniladi. Tinglovchidan javob talab etmaydi. Shoira ham o'z hayratini, quvonchi va ko'tarinki kayfiyatini shu so'zlar orqali tasvirlamoqda. 她“推着浓妆的世界”，转到你面前 “ko'z o'ngingda, yorqin pardoz qilgan dunyoni paydo qiladi” ushbu satrda muallif bahorga nisbatan: 浓妆的 Nóng zhuāng de “yorqin pardoz qiluvchi” degan yana bir yana epitetni keltirib o'tadi. Bahorni “pardozchi”ga qiyoslaydi. Bunda yana jonlantirish san'atidan foydalanadi. 看这美满完全的表现呵！satrida muallif “美满完全的» měimǎn wánquán de-“baxtlar uyg'unligi aks etgan, mukammal ifoda(hilqat)”ga hammani qarashga undaydi. Bahorni kishi qalbiga mukammal baxt, quvonch bag'ishlashini ta'kidlaydi.

Zulfiyaning “Sano aytib har o'tgan onga”, bandida ham tashxis san'ati keltirilgan. Bahorning Yaratganga hamd-u sano aytishi ham juda chiroyli ma'naviy-ruhiy manzarani hosil qilgan. Bu satrlar Bing sin she'rlaridagi Yaratganga iltijo va hamdlarni eslatadi.(Bing sin asli xristian dini vakilasi edi) U ko'plab she'rlarida insonlarni hayot uchun, go'zallik uchun Yaratgandan minnatdor bo'lishlari lozimligini uqtiradi.

Zulfiyaning keyingi banddagi “Istarangdan olgancha ziyo”, bandini shoirauning badiiy kashfiyoti desak bo'ladi. Chunki “istara” so'zi o'zbek tiligagina xos, milliy koloritni ifodalovchi so'zlardan biri bo'lib, bu so'z “fayzli chehra” tushunchasi bilan anglashiladi.

“Bizga iqbol tilarmish Bahor”, bu satrda bahor baxt, muhabbat, go'zallik fasli ekanligiga urg'u berilmoqda. Bahor baxt tilayapti muallifga- ya'ni intoq san'ati qo'llanilyapti.

Frazeologik birliklardan o'rinli foydalanish qalam ahlining badiiy mahoratini ko'rsatib turuvchi muhim vositalaridan sanaladi. Turmush tarzimidagi xilma-xil voqea-hodisalarning tagiga yetish, turli tuman harakat holatlarga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan

xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari bo'lgan iboralar badiiy matnda doimo poetik aktual bo'ladi. She'r so'nggida "Baxtimizdek kularmish Bahor" deganida Zulfiya "baxti kulmoq" frazeologizmini mahorat bilan qo'llaydi. Bing sin ham" 可能听她微步的足音" satrida 微步的足音 Wēi bù de zúyīn "mikroqadamtovushlar" idiomasini, keyingi qatorda esa 轻倩的笑语 Qīng qiàn de xiàoyǔ "maftunkor tabassumlar" epiteti tarkibida 笑xiàoyǔ (kulimsirab so'zlashish) frazeologizmlarini qo'llagan.

Oxirgi satrda esa shoira "春"在里边蕴藏着了! bahor aslida "ichkarida joylashganini" ta'kidlaydi. "里边" Lǐbian so'zi serqirra ma'no ifodalaydi. Bu jumla orqali "bahor"ni o'zi naqadar sevishini, "bahor" uning uchun baxt-saodatlar, ilhom manbai ekanligini o'zgalarga aytmoqchi bo'ladi. O'quvchi esa shoironing "bu siridan voqif bo'lgach", ushbu ijodkor qalbini bahor singari nechog'lik go'zal va maftunkor ekanligini chuqurroq anglab yetadi.

Bing xin baxtni bahor tashrifida his qiladi. Bing xin bahorda baxt va quvonch, ezgulik, yoshlik shiddati, nafosatni ko'radi. Bing Xin hayoti davomida o'zining she'r yoza olmasligini va she'r yozmasligini ko'p bora aytgan. Uning she'riyati lirikaga ko'proq mos keladi. Uning 小诗 "kichik she'rlari" son-sanoqsiz kitobxon va yozuvchilarni o'ziga maftun etgan va romanlaridan ham jozibaliroqdir. Bahor haqidagi she'rlarida u yer yuziga bahorni qaytarmoqchi bo'ladi, bahor bilan nafaqat dunyoni, balki qalblarni ham go'zallashtirmoqchi bo'ladi. Bu kabi she'rlari odamlarga bir vaqtning o'zida ham sog'inch, ham hayrat va sevinch bag'ishlaydi. Bu go'zal she'rlar shoironing bahoriy kayfiyati ko'zgularidir.

Zulfiya she'riyatida esa ko'p ma'nolilikning turli ko'rinishlari, aniqrog'i, ko'chimning turli bosqichlari uchraydi. Xalqning jonli tiliga yaqinlik Zulfiya Isroilova ijodining o'ziga xos uslubidir. Zulfiya tabiat suratida insonlar ko'nglini aks ettirmoqchi bo'ladi. Uning asosiy ilhom manbasi "bahor"faslidir. Bahor timsolida u hayotning go'zalligini, insonlar quvonch-u qayg'ularini, orzu-intilishlarini, tinchlik va osoyishtalikni ko'radi. Bahor muhabbat, tiriklik, baxt timsoli sifatida gavdalanadi.

Ushbu maqolada ikki shoira ijodini bir mavzu doirasida ko'rib chiqdik. Har ikkisi ham bahor haqidagi she'rlarida ekspressiv ma'nolarga boy ko'plab til vositalaridan o'rinli foydalanganlar. Ular ijodi ikki poyonsiz dengiz misoli. She'rlaridagi vatanparvar, ezgu g'oyalar esa millat ayollarining mayog'i bo'lib asrlar osha porlab turajak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
2. Захарова, Н.В. Женская тема в творчестве Бин Синь // Проблемы литератур Дальнего Востока. Материалы V Международной научной конференции: В 3 т. — СПб.: Изд-во С.- Петербургского ун-та, 2012. — Т. 2. — С. 93– 97.
- 3.Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.— Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.
- 4.Мирзаев И. Лингвопоэтик таҳлил—ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бирламчи омили эканлиги ҳақида. Илмий тўплам 3-том. —Т.:ЎзМУ нашри, 2006, 81-83-б.
5. Qayumov A. Shoira Zulfiya. Hayoti va ijodi haqida ocherk. O'zadabiynashr, Toshkent, 1975.
6. Рихсиева Г.Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар//ЎТА. —Т., 2003. -№2(4).-Б. 84-86.
- 7.Султанова м., Зулфия, Ташкент, 1985; Ибрагимов М., Создатель солнечной поэзии, Ташкент, 1986.
8. Saylanma / Zulfiya. – Toshkent : Sharq nashr. – 272 b.
9. 冰心. 繁星 (Бин Синь. Мириады звезд). — [Шанхай]: Изд-во Шанью иньшугуань, 1923. — 90 с.
10. 冰心全集第一卷. 福建. 1994年
11. 冰心全集第二卷. 福建. 1994年
12. <http://www.baidu.com>
13. <http://www.litres.ru>
14. <http://www.academia.edu>
15. <https://tafakkur.net/zulfiya>.